

FARZAND TARBIIYASIDA OILAVIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Omon Suvanov

Guliston davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida katta o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada farzand oilaning boyligi, quvonchi, ota-onaning baxti, faxri-iftixoriga aylanishi, uning dunyoga kelishi nafaqat ota-ona, balki qarindosh-urug’, yoru-birodar, qo’ni-qo’shni uchun g’am olam-olam quvonch baxsh etishi bilan tirga tarbisi ham ahamiyatli ekanligi. Butarbiyada oila qadriyatlarining o’rni va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: oila, ota-ona, farzand, o’g’il-qiz, er-xotin, aka-uka, opa-singil, yoru-birodar, qo’ni-qo’shni baxti, faxri-iftixor.

Qadim – qadimdan Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Koshg’ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Zaxriddin Muhammad Bobur, Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy va boshqalarning qarashlarini birlashtirgan negiz, shaxs tarbiyasi va uning kamolotida oilaviy tarbiyaning o’rni yuqori qo’yilgan. Ayniqsa oilada farzand tarbiyasida axloqiy va aqliy tarbiyaga jiddiy etibor berilgan.

Buyuk allomalarimiz faqat oilaga daxldor bo’lgan, yani oiladigina rivojlanishi mumkin bo’lgan fazilatlar-o’zaro mehribonlik, bolajonlik, halollik, poklik, bir-biriga xurmat, ishonch, mardlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, haqgo’ylik kabilarni qadriyat darajasiga ko’tarib, bunday insoniy munosabatlarda namoyon bo’ladigan yuksak fazilatlar avvalo ota-onadan bolaga o’tishi va ularni jamiyat taraqqiyotidagi o’rniga alohida to’xtalib, o’zlarining amaliy ko’rsatmalari orqali ifodalab borganlar.

Oila tarixiy kategoriya sifatida arabchadan “ayolmand, niyozmand” manolarini anglatib, insonning tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, uy-rozg’orga egalik qilish), huquqiy (qonuniy nikohda bo’lish va konstitutsiyaviy 63, 64, 65, 66 moddalar), manaviy – axloqiy (oilada sog’lom muhit, er-xotin va farzandlar o’rtasidagi mehr-oqibat hamda o’zaro hurmat) kabi munosabatlar muvozanatiga asoslanadi.

Yakka inson oilani tashkil qila olmaydi. Oila hamisha juftlikda, ikki xil jins, yani er-xotin hamda ularning farzandlaridan tarkib topadi. Odam Ato va Momo havolarning ilk oila bunyodkorlari bo’lganliklariga oid islomiy qarashlar ham fikrimizning dalili hisoblanadi. Ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi, xususiy mulkchilikning kelib chiqishi, egalik tuyg’usining shakllanishi, oilani kelib chiqishiga olib kelgan bo’lsa ajab emas. Nima bo’lganda ham oilaning paydo bulishiga onalik tuyg’usining ustuvorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Oilada dunyoviy va diniy axloqning to’g’ri shakllanishi, ayniqsa, bola tarbiyasida islomiy qarashlarni yosh, jins xususiyatlarga mos tizimli bo’lishi dolzarb masala hisoblanadi. Quroni karimda g’iybat, yolg’onchilik, ishyoqmaslik va qabix ishlar qattiq qoralanib, o’zgalarga yaxshilik qilish, o’zaro hurmat, etiborli bo’lishga davat etilgan.

Xadisi shariflarda xam odob-axloq, ayollarni oilada o'zni, vazifalari, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, bola tarbiyasi masulyati, nikoh hamda muhabbat masalalariga keng o'rin berilganki bu jarayonning sintez alohida qadryat darajasida o'rganiladi.

Milliy tarbiyamizning bu jihatlariga bo'lgan etibor o'sib kelayotgan yoshlarni har xil oqimlar, diniy aqidalar hamda ommaviy madaniyat tuzog'idan saqlashdai pedagogik omil vazifasini o'taydi.

O'zbekona milliy tarbiyada er va xotin munosabati o'z o'zni bilan qadrlanadi. Ayniqsa, ayollarni sabr-qanoatli bo'lishi, boriga shukur qilib yashashi, erga itoat qilishi, ayol kishini saranjon-sarishta bo'lishi, erining moli va ashyosiga etiborli bo'lishi, erining qarindosh-urug' va yaqinlariga hurmat bajo keltirishi, ovqatni o'z vaqtida tayyorlashi, pazanda hamda chevar bo'lishi, erining ko'ziga xush ko'rinishlik kabi sifatlar oilada bola tarbiyasiga ham ijobiy tasir ko'rsatadi. Shunga ko'ra yaxshi xotin o'zining davlati va baxti deb bejizga aytishmagan. Uning ozodaligi, har bir narsani o'z joyida bo'lishi, ro'zg'orda tartib-intizom, tejamkorlik, xonadon egalariga alohida huzur bag'ishlaydi, charchoqni oladi, ishda unum va barakot bo'ladi.

Inson tug'ilib o'sgan xonadoni, yoshligida ko'rgan – kechirganlari, uy-ro'zg'or buyumlari, dov- daraxtlar, atrof-muhit, barchasi bola uchun qadrlil, ahamiyatli. Odam bolasi necha yoshga kirgan bo'lishidan qat'iy nazar, bolalik taassurotlari, ayniqsa, oilaviy voqea-hodisalar, ota-ona munosabati, olgan tarbiyasi, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lar, to'y-maraka hamda tug'ilgan kunlar, xotirada bir umrga muhrlanib qoladi.

Xalqimizda “Bir bolaga etti qo'shni ota-ona degan naql bor. Mahallada yoki bola tug'ilib o'sayotgan guzarda katta-kichik bir-birini taniydi, hurmat qiladi. Kishining ijtimoiy axvoli qanday, kim qayerda ishlaydi, bolasi kim va qanday tarbiya topayotganligidan voqif bo'lib turishadi. O'g'il yoki qiz bolaning odobi, o'zini qanday tutishi, atrofidadilarga munosabati to'g'risida albatta bilishadi. mobodo bola darsiga o'z vaqtida bormasa, kattalar oldidan besalom o'tsa, yurish-turishi yoki kiyinishida noananaviy holatlar ko'zga tashlansa va bunday holat milliy tarbiyamizga muvofiq kelmasa, bola to'xtatilib, u kimning bolasi bo'lishidan qat'iy nazar tanbex beriladi, hamda tarbiyaviy tasir ko'rsatiladi.

Oilada bola uchun ota-ona andaza hisoblanadi. O'g'il bola ko'proq otasiga, qiz bola onasiga taqlid qiladi. Ro'zg'orning og'ir yukini tortish, yani erkak bajarishi lozim bo'lgan yumushlarni o'z vaqtida ota tomonidan bajarilishini, uyni esa saranjon-sarishta qilib joy –joyiga qo'yish onaning ishi hisoblanadi.

Aqliy va jismoniy mehnatni oilada uyg'un holda olib borilishi bola salomatligiga ijobiy tasir ko'rsatadi, egamanlik hissini uyg'otadi.

Oilaviy qadryatlar mazmunida “birga tug'ilmoq bor, birga turmoq yo'q” degan naql bor. Qarang, bir ota-onaning farzandlari birga tug'ilgan bo'lsalarda, o'nib-o'sib, kamol topib, boshqa-boshqa oila qurib, alohida-alohida turmush kechirishlari oilaviy

qonuniyat, zaruriyat va ayni paytda ehtiyoj hisoblanadi. “Birga tug’ilmoq bor, birga turmoq yo’q” degan maqol ham shunga yaqin manoni anglatadi.

Tarixan xalqimiz bolajon bo’lib, farzandlar qancha ko’p bo’lsa, “O’nta bo’lsa o’rni boshqa” naqliga amal qilinib har bir bolasini alohida suyib, alohida ardoqlab, har biriga etarlicha mehr berib kelingan.

Shunga muvofiq ko’p bolali oilalar hamisha qadrlangan. Farzand oilaning boyligi, quvonchi, ota-onaning baxti, faxri-iftixoriga aylangan. Farzandning dunyoga kelishi nafaqat ota-ona, balki qarindosh-urug’, yoru-birodar, qo’ni-qo’shni uchun g’am olam-olam quvonch baxsh etadi. Bekorga “Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor” deyilmagan. Demak, bolali uyga befarq qaralmayji, alohida etibor va urf – odatga muvofiq hurmati joyiga qo’yiladi.

Ota-ona farzandini hech qachon tahqirlamaydi, yomon so’zlar bilan koyimaydi. Chunki so’zda sehr bor. Har bir gapni o’ylab, ehtiyot bo’lib gapiradi. Bolani qarg’amaydi. “Uyinga bug’doy to’lgur” deb engil koyiydi.

Chunki otani qarg’ishi o’q deyishadi. Ota-ona o’zi uchun emas, farzand va nabiralari uchun yashaydi. Ayrim Ovrupa mamlakatlaridagilar o’zi uchun yashaydi, bola tarbiyalash, jon koyitish ular uchun ortiqcha yuk hisoblanadi. “Nasl qoldiray, chirog’imni yoqib qoldiray, avlodimni davomchisi bo’lsin” degan tushuncha bilan yashamaydi.

Sharqda ota-ona farzandlar uchun manaviy quvvat, fikrdosh, sirdosh, duogo’y, suyanadigan tog’ va katta boylik. Qarang “o’nta bola bir ota-onani boqa olmvydi, ammo bir ota-ona shn farzandni og’rimay boqa oladi” deyishadi. Bu gapda ham qandaydir majoziy mano bordek tuyuladi. Chunki bu jarayon, bu tajriba hayotdan olingan.

Ammo oyni etak bilan yopib bo’lmaganidek, oilada er-xotin o’rtasida bir-birini tushunmaslik yoki tan olmaslik oqibatida kelib chiqadigan nizolar, urush-janjal va ajralishlar ham ko’zga tashlanib turadi. Bunday xatolarda bola jabrlanadi va etibordan chetda qoladi.

Malumki turmush qurish jarayonida yosh, malumot, hayot tajribasi ham ko’p narsani hal qiladi. Olib borayotgan tadqiqotlarimiz ko’proq 20-30 yosh oralig’ida ajralishlar sodir bo’layotganligini ko’rsatadi. Yosh oilalarda bobo va momolarning bo’lishi ham alohida ahamiyat kasb etib, ayrim muammoli vaziyatlar hamda muammolarning oldini olishda keksalarning maslahat, pand-nasihati juda asqotadi.

Oilada muhitni sog’lom ushlab, er-xotinni bir-biriga yon bosishi, engiltaklik qilmaslik, dunyoqarash va madaniyatning mos kelishi ham muhim omil sanaladi. Zero, bu o’rinda er-xotin bilimdon, madaniyatli bo’lsa, oilaviy qadryatlarga amal qilinsa, oila tinch, zurriyot sog’lom, aqlli hamda omilkor bo’ladi. Oiladagi sog’lom muhit bola kamolotini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdukarimov H. Ibratli psixologiya.-T.: Navro'z, 2015.- 154 b.
2. Safarov O. Mahmudov M. Oila manaviyati. – T.: Manaviyat, 2009. – 248 b.
3. Sharopov J. X. Oilada shariat qoidalari va huquqiy madaniyat.- T.: G'ofur G'ulom, 2010. – 72 b.